



XALQ PEDAGOGIKASIDA OTA-ONA VA FARZANDLAR MUNOSABATLARINING IFODALANISHI

Raxmanova Lobar Jaloliddin qizi

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

universiteti pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada xalq pedagogikasida oilaning ahamiyati, uni tashkil qiluvchi a'zolar munosabati, ota-onalarning o'zaro munosabatlarini farzandlar tarbiyasiga ta'siri, shuningdek farzandlar va ota-ona munosabatlarining ifodalanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: munosabat, oila, oilaviy muhit, er-xotin munosabatlari, intuitsiya, jamiyat

ABSTRACT: This article discusses the importance of the family in folk pedagogy, the relationship of its constituent members, the influence of parents' interactions on children's upbringing, as well as the expression of children's and parents' relationships.

Key words: relationship, family, family environment, couple relations, intuition, society

В данной статье рассматривается значение семьи в народной педагогике, взаимоотношения ее составляющих членов, влияние взаимодействия родителей на воспитание детей, а также выражение детских и родительских отношений.

Ключевые слова: отношения, семья, семейная среда, парные отношения, интуиция, общество.

KIRISH

Oila-muqaddas dargoh. Uni asrab-avaylash har kimning o'z qo'lida. Oila a'zolarining inoq va ahil bo'lib birgalikda yashashi juda ko'p narsalarga ta'sir o'tkazadi. Masalan, eng bosh va muhim ta'sir- bu o'sha oilada unib-o'sayotgan, tarbiyalanayotgan bolalarga. Men hech qayerda ko'rmadim, oilasida munosabatlar



yomon bo'lgan farzandning istiqbolini yoki aksincha, oiladagi muhit ajoyib bo'lgan bolaning yomon ish qilganini. Aslida, tarbiya-oiladan boshlanadi. Bejizga hozirgi kunda yoshlar orasida jinoyat, giyohvandlik, qotillik va o'g'rilik kabi huquqbuzarliklar avj olmagan. Negaki ba'zi bir o'zini "zamonaviy" deb hisoblaydigan oila vakillari farzandlariga yetarlicha e'tibor bermaydi, ular bilan muloqot qilmaydi. Farzandlarining o'y fikrlari, nima bilan mashg'ul ekanliklari - bularning bari ota-onalar uchun muhim emas. Ular farzandlariga mehr berishmaydi. Lekin o'zbek xalqi qadimdan oilani-muqaddas dargoh deb hisoblagan. Yoshi katta insonlar-oila boshchilar farzand tarbiyasiga juda qattiq turishgan qadimdan. Bolalar bilan ko'proq muloqot qilishgan. Shunday ekan oilada ota-onalar va farzand munosabatlari bu juda muhim hisoblanadi. Quyida shu haqida batafsil yoritib beriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oila inson hayotida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Aynan oilaviy munosabatlар va muloqotda inson ehtiyojlari amalga oshiriladi, ya'ni:

- ★ ma'lum bir guruhg'a mansublik tuyg'usini beruvchi insoniy aloqalarga bo'lgan ehtiyoj;
- ★ o'zini o'zi tasdiqlash zarurati, bu his-tuyg'ular va uning boshqa odamlar uchun ahamiyati haqida haqiqiy dalillar;
- ★ mehrga bo'lgan ehtiyoj, bu o'zaro iliqlikni his qilish imkonini beradi;
- ★ shaxsning o'ziga xosligi, individualligi hissini shakllantiradigan o'z-zini anglash zarurati;
- ★ namuna bo'ladigan orientatsiyaga bo'lgan ehtiyoj.

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-onalar vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga



chiqarishi mumkin. O'sha vaqtida esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Xalq pedagogikasida ota-onada o'z farzandini sevishi, erkalashi, ardoqlashi zarurligi, lekin me'yordan orttirib taltaytirmaslik kerakligi, aks holda bu yomon oqibatlarga olib keladi.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytildi. Har bir ota-onada o'z farzandi uchun ko'zgudir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lган e'tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: "Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo'laga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir". Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo'yish to'g'ri emas. Bu borada otaning ham o'rni beqiyosdir. Hayotda og'il ko'proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiliği farzandga kuch-quvvat bo'ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo'lган ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o'zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o'z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o'zaro muomala madaniyatida to'g'rilik, halollik, samimiylilik yuzasidan namuna bo'la oladi. Oilada samimiylilik, bir-biriga bo'lган mehr va hurmat yuqori bo'lsa, farzandning o'sib ulg'ayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko'rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi: "Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol. Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh". Oilada ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oila



sog‘lom, yetuk farzandni ulg‘aytirib kamol toptirishda mas’uldir. Farzandni sog‘lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog‘liqdir.

XULOSA

Oila - jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo’lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog’laydi, ya’ni o‘z uyi, oilasida baxtli bo’lgan insongina o‘zini to’laqonli baxtiyor his etadi. Yuqoridagilarni muxtasar qilib aytganda, xalq pedagogikasining barcha manbalarida oila tarbiyasi, unda ota-onas, farzandlaming o‘rni, oilada tarbiya turlari, usullari va vositalari, oila ma’naviyatiga xalqona qarashlar juda keng va atroficha yoritilgan boiib, hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Demak, biz bu bebaho qadriyatimiz - xalq pedagogikasi manbalaridan farzandlarimiz tarbiyasida foydalanishimiz zarurdir.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi o‘zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.



6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.